

## QUROQ YURAK IJODKOR

*Ko‘charova Dildora Karim qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada she‘riyatimizning umidli vakillaridan biri bo‘lmish Mirzohid Botirov she‘rlari tahlil etildi. Ijodkorning “Hayrat chohlari”, “Derazangni och”, “Hayot simfoniyasi” kabi to‘plamlaridagi ayrim she‘rlarga munosabat bildirildi. Ijodkorning mahorati, uslubi, ijodining yangiligi, she‘rlarining bosh mavzulari haqida fikrlar bildirilib, asoslandi. Shuningdek uning topilma satrlari tahlil qilinib, nozik ma‘nolari ochib berildi.

**Kalit so‘zlar:** yangi topilmalar, tashbehlar, kamtarinlik, bosh mavzular, ajdodlarga izdoshlik, ona timsoli, avtobiografik she‘rlar.

**Annotation.** The article analyzes the poems of Mirzohid Batyrov, one of the most promising representatives of our poetry. Some of the poems in the author's collections, such as "Wonders of Wonderland", "Open the Window", "Symphony of Life" were commented on. Opinions about the artist's skill, style, novelty of his work, the main themes of his poems were expressed and justified. The lines of his findings were also analyzed and their subtle meanings revealed.

**Keywords:** new discoveries, metaphors, humility, main themes, ancestral traces, mother figure, autobiographical poems.

**Аннотация.** В статье анализируются стихи Мирзохида Батырова, одного из самых перспективных представителей нашей поэзии. Были прокомментированы некоторые стихотворения в авторских сборниках, такие как «Чудеса страны чудес», «Открой окно», «Симфония жизни». Высказаны и обоснованы мнения о мастерстве художника, стиле, новизне его творчества, основных темах его стихов. Линии его находок также были проанализированы и раскрыт их тонкий смысл.

**Ключевые слова:** новые открытия, метафоры, смирение, основные темы, родовые следы, фигура матери, автобиографические стихи.

O‘zbek she‘riyatini katta bir gulzorga mengzasak, ijodkorlarimizni kishiga shirin tuyg‘ular ulashadigan, hayotga mehr-muhabbat uyg‘otadigan gulga qiyos etmoq mumkin. Gulzorda turli-tuman gul ko‘p va har birining bo‘yi, qaddi, huns-u

tarovati bir-birini takrorlamaydi. Biz ham ijodi bilan she'riyat muxlislari qalbidan chuqur joy egallab ulgurgan, she'rlari bilan insonlarni ham suyuntira oladigan, ham kuyintira oladigan shoir – Mirzohid Botirov ijodiy olamiga sayrga otlandik. Botirov Mirzohid Ismonxo'jayevich 1974-yil 24-mart kuni Andijon viloyatida tug'ilgan. Muallifning beshta she'riy to'plami nashr etilgan bo'lsa-da, kamtarinligi sababli ko'plar bu insonni dastlab shoir sifatida tanimagan. Oxirgi yillar mobaynida chiqargan she'riy to'plamlari va "Go'zal yozg'ichlar" mualliflik telegram kanali orqali ko'plab she'riyat ixlosmandlari o'zbek she'riyatiga Muhammad Yusufning xalqona ohanglarini, Cho'lponning go'zal tashbehlarini, shoh Boburning hijronli ohlarini, Mashrabning avom tushunmas isyon-u nolalarini she'rlariga jo qilgan umidli va iqtidorli bir ijodkor kirib kelganini bilib oldi. Shoirning "So'z sehri" (2005), "Armonning davomi" (2006), "Hayrat chohlari" (2020), "Derazangni och" (2021), "Hayot simfoniyasi" (2021) kabi she'riy to'plamlari o'quvchilar qo'liga yetib borgan. Ijodkor ona shahri Andijondan faxrlanadi, bu go'shada tug'ilib nomlari olamni tutgan ijodkor bobolari ortidan ergashadi, Andijonni ulardan kam sevmaydi.

Bog'ishamol adirlari kundan kun o'sar,  
Ezguliklar bo'yi baland, tog'larni quchar,  
Chor atrof gul, har kun bunda rizqimiz unar,  
Momolari o'sma qoshli, Andijondadir,  
Anda jonim, Andijonim ishq tandidir.<sup>1</sup>

Ijodkor ona shahrining har bir giyohini, tog'-u toshini, barcha kishilarini chin dildan sevadi. O'zi qayerda bo'lmasin yurt ishq tanida, qalbida. Ijodkor o'zidan avvalgi ijodkorlar ijodini puxta biladi va kezi kelganda ularga o'xshatmalar bitadi. Ijodkor bir qaraganda Muhammad Yusufga izdosh bo'lib ko'rinsa, boshqa bir she'rlarida Boburning davomchisidek, yana boshqa she'rlarida Cho'lponning shogirdidek taassurot qoldiraveradi. Qismati jihatidan Boburga o'xshashlik uni

<sup>1</sup> Botirov M. "Hayrat chohlari", Andijonim, "Step by step print" MChJ 8-bet

bobomiz Zahiriddinga yana-da, yaqin qilib qo'yadi. Bu holatni "Andijonim" "Bobur sog'inchi", "Isyon", "Topmadim" kabi she'rlarini o'qigan e'tiborli kishi ilg'amasligi mumkin emas.

Andijondan shoh Bobur kabi,  
Ketdim, oxir boshimni olib.  
Yallachilar qo'lida qolgan,  
Yuragimni poyimga solib.<sup>2</sup>

Yuqorida Boburga qismatdoshlik deya biroz mubolag'a qilgandirmiz, ammo she'rlaridan shuni aniq anglash mumkinki, ijodkor ham nomard-u nokas kishilarning tuxmat-u bo'htonlari sababli bir qancha muddat ona shahrini tark etib, Boburdek o'zga yurtlarga bosh burmasa-da, yurtimizning boshqa shaharlarida yashagan. Muallifning yuragi katta, yuragi quroq. U bir she'rida o'z dardi bilan yongandek ko'rinsa, boshqa bir she'rida siz-u bizning dardni kuylagandek. Aslida ijodkor ahli uchun dardning begonasi bo'lmagandek Mirzohid aka ham xalqning dardini o'ziniki qilib olgan. Bir qarasa donishmand, bir qarasa isyonkor, bir qarasa g'amguzor bo'lib kuylayveradi. Uning qismati so'z. Yozmasa yasholmaydi. Uning she'rlarida tasavvufiy ohanglar ham yetakchilik qiladi:

Qosh ko'ziga qo'shib, iymonin bo'yab,  
Badbaxtligin ko'z-ko'z qiladi nokas.  
Ey inson, kim eding, kimga aylanding,  
Mahshar kuni qadding tuta olsang bas!<sup>3</sup>

Ijodkorning she'rlari ta'kidlaganimizdek Allohdan, uning qudratidan, rahmatidan uzilmagan. Jamiyatdagi illatlarini ham o'z she'rlari orqali tanqid qiladi. Qosh-u ko'zni bo'yalganini har bir inson ko'zi bilan ko'roladi, ammo iymonning bo'yalganini bilish uchun, avvalo, har kishida iymon bo'lishi va bo'yalgan iymonni ko'ra oladigan o'tkir qalb ko'zi bo'lishi kerak. Shoir she'rlarining bosh

<sup>2</sup> Botirov M. "G'uzal e'z'gichlar" telegram kanali, "Isyon"

<sup>3</sup> Botirov M. "Hayrat chohlari, "Bekamlik" "Step by step print" MChJ 21-bet

mavzulari va bosh qahramonlari – marhuma volidayi muhtaramasi, imon, vatan muhabbati, sevgi, vafo va boshqalar. Ijodkor nima yozmasin, qayerda yozmasin, u bolalik xotiralaridan kechmaydi, ona yurtidan va xalqidan faxrlanadi, musulmon qilib yaratgan Robbisiga doimo hamd aytadi.

Muallifning “Onam sig‘magan hovli” nomli she‘rini o‘qir ekansiz ko‘zyoshlaringni tiyish mushkuldir. Besh yoshida onasiga ergashib o‘gay otaning uyiga borgan va o‘sha vaqtlardan boshlab bolalikning shirin orzularini unutib, ulg‘ayishga majbur lirik qahramonni ko‘rasiz, bu she‘rda. She‘r avtobiografik xarakterdaligini ham unutib qo‘ymaslik lozim. Shu she‘r aynan muallif achchiq hayotining she‘rdagi bir ko‘rinishi. Ijodkor kechalari ko‘zida yosh bilan yetim bolasiga iqbol so‘rab Yaratganga duo qilib chiqqan mushtiparini endi qanday unutsin?! Onasi sig‘magan hovlini “armonlarimga vatan”, “ostonasi g‘am buloq”, “g‘amlarimga mozorim”, “yagonamdan yodgorim” kabi tashbehtar bilan tasvirlaydi. She‘rni o‘qib shuni aytish mumkinki, bu she‘rdagi lirik qahramon bitta emas, axir jamiyatda o‘gay ota uyida na onasi, na o‘zi sig‘may yashayotgan “erka” o‘g‘illar kammi?! Ijodkorning “O‘zimga maktublar” nomli she‘rida ham yuqoridagi azoblarning davomi shoirning yuragidan sizib-sizib chiqadi:

Go‘dak vujudimga, minglab ignasin,  
Sanchgan nigohlardan bo‘ynim qisilib.  
Mushfiqa onamning mehriga to‘ymay,  
Yashadim, chaqirlar tovonim tilib.<sup>4</sup>

Bu she‘rdagi lirik qahramon har qancha azob tortmasin onasining bag‘rida baxtli yashaganini keyinroq tushunib yetadi va yuqoridagi she‘rning davomida shunday bo‘zlaydi:

Men g‘amning shaklini topolmagandim,  
Onamni yo‘qotib qo‘ygan kungacha.

---

<sup>4</sup>Botirov M. “Hayrat chohlari”, “O‘zimga maktublar” “Step by step print” MChJ60-bet

Yuqorida ishora qilib ketganimizdek ijodkor mumtoz adabiyotni va undagi janrlarni ham puxta o'rgangan va o'zi ham uchlik va aruzning ramal bahrlarida g'azallar yozgan. Uning g'azallari va uchliklari "Hayrat chohlari" to'plamidan o'rin olgan.

Mirzohid akaning to'plamariga berilgan nomlar ham bir ramziylikka egadek, go'yo. Masalan "Hayrat chohlari"ni eshitib hayratda choh nima qilsin deb o'ylab qoladi kishi. Choh asli "chuqur", "o'ra" degani bo'lsa-da, bu to'plam nomida "qa'r", "og'ush" degan mazmundadir. Shundan kelib chiqib to'plam nomini "Hayrat og'ushi" sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Botirovning yana bir to'plami "Derazaning och" deb nomlangan. Bu yerda ham o'ziga xos ramziylik ishlatilgan. Bu derazani turlicha tushunish mumkin. Shu to'plamga so'zboshi yozgan Guljamol Asaqarova deraza – ijodkorning ko'ngil derazasi desa, biz bu ijodkorning dunyoga razm soluvchi o'tkir ko'zi – qalbning o'zginasi deya tahlil va ta'rif etishni munosib topdik. Ijodkor so'zni qadrlaydi, unga juda yaxshi munosabatda bo'ladi. Uning uvolidan qo'rqadi. Bilib-bilmay aytgan so'zidan-u, amallaridan qo'rqadi. Qo'rqish barobarida Allohning rahmatidan ham ko'nglini uzmaydi, Uning mag'firatidan umidvor. Garchi arablarning eng katta tog'i – Uhud tog'idek gunohi borlarni ham rahmati bilan mag'firat qiluvchi Rahmonga bosh egib tavba qilishni quyidagicha betakror tasvirlab beradi:

... G'afolat zanjirlarin, birma-bir uzib,  
Sajdada ko'z yumib, yig'lab uyg'onsang.  
Xato yo'llaringning javobin so'rab,  
Tonggacha bo'g'zingda yonsa bir nido.  
Garchi gunohlaring Uhud tog'icha,  
Kechir deb yolvorsang, kechirsa Xudo,  
Kechirsa Xudo...<sup>5</sup>

<sup>5</sup> Botirov M. "Derazangni och", "Kechirsa" T.: "Yangi asr avlodi" 26-bet

U hamisha Allohning rizoligi uchun harakat qiluvchi bir zohid obrazida she'rlari orqali bo'y ko'rsatadi. Yuqorida aytganimizdek muallifning tashbehlari noan'anaviy. O'ziga xosligi bilan kishini hayratga soladi:

Ko'ksimning chap yoni kun tushmas ungur,  
Yomg'ir quyiladi, vujudim quduq,  
Qo'llarim ko'karib chiqqan qamishnay.<sup>6</sup>

Oddiy ko'z bilan boqqanda hayotda uchramaydigan o'xshatish qilingandek. Ammo inson asli tuproqdan yaratilganligini hisobga olsak, yomg'irli kunda inson tabiati farahga to'lib, yomg'ir uning g'uborlarini yuvgandek bo'ladi. Lirik qahramonimiz yomg'irga shu qadar intiqki, vujudi quduq bo'lib, yomg'irni sipqoradi. Ko'hna rivoyatlarda bo'lganidek, quduq suvining namidan qamish o'sib chiqqanidek qahramonimiz ham qo'llarini qamishnayga o'xshatadi.

Boshqa bir she'rida ijodkor shoirlarga xos bo'lgan orzularini baralla aytgandek:

Dardim tuhfa, holim so'rmay, zimdan-zimdan kulganga,  
Hayot sahna, o'yingohmi, o'zin dono bilganga?!  
Bitta darvesh yuragida, chaqnab tursa so'zlarim  
Qulluq deyman, peshonamga, so'zni qismat qilganga!<sup>7</sup>

Misralardan anglaganimizdek, hatto bir darvesh yuragiga yozganlari yetib borsa, qalbida yashasa, shoirligidan mamnun yashab o'tishini yashirmay aytib o'tadi. Rostiyam shu-da, ijodkor ijodi kimnidir hayajonga solmasa, kimnidir to'g'ri yo'lga boshlamasa, dardlarini aritmasa, xotiralarining changini qoqib, olis yoshliklikning ham shirin, ham achchiq xotiralariga olib keta olmasa uning yozgan tom-tom kitoblaridan kimga zarra naf bor?! Botirov she'rga ko'ngil ermagi deb emas hayot tuhfasini, taqdiri azal deb munosabatda bo'lishini yana bir bor

<sup>6</sup> Botirov M. "Derazanggni och", "Kuylarim to'kilsin" T.: "Yangi asr avlodi" 81-bet

<sup>7</sup> Botirov M. "Derazanggni och", "Qismatim so'z" T.: "Yangi asr avlodi" 83-bet

ta'kidlamoqchimiz. U ijodkorlik ilohiy qismatligini yaxshi anglab, Allohga shunday nido qiladi:

She'r ibodat,  
She'r derlar, duo  
G'o'r shoirni,  
Asragin, Xudo!  
Cho'lponingni boshini yegan,  
She'rlar,  
Uni qilmasa ado!<sup>8</sup>

U she'rga ibodatdek qaraydi. Agar banda ranjib qolsa, azr qilishi mumkin bo'lgan, uning barcha dardlarini tinglaguvchi zot – Alloh bor. She'r orqali ijodkor dardlarini ham Yaratganga ham o'quvchiga bayon etadi. Boshqa bir she'rida u Allohga yuzlanib, shoir so'zdan tug'ilganmi, yo so'z shoirdan degan degan bahsli savolni berar ekan, yakunida shoir ahlining jannatiy bo'lishini U zotdan so'rab qoladi:

...Dunyoning razolat botqog'ida ham,  
So'z bilan poklanar, ShOIR halqumi.  
Bitta so'rog'im bor, o'zimdan ortiq,  
Robbim, Jannatiy qil, Shoir xalqini.  
Bizni so'z tuqqanmi, yo so'zlarni biz...<sup>9</sup>

Mirzohid aka ishq-muhabbatni kuylashda ham hech kimnikiga o'xshamaydigan tashbehlar, o'xshatishlar topadi. U boshqacha sevadi. U hijronda boshqacha azob chekadi. O'zgacha oh uradi. Boshqacha kuylaydi. Ijodkor seviklisini shunday sevadiki, bir she'rida o'zi aytganidek uni tashqi xatarlar nari tursin, g'amgin tushlardan ham kipriklari bilan qo'rishga tayyor. Yori uning ko'zlarida uxlasa uni uyg'otmaslik uchun butun umr ko'zlarini ochmay kutishga

<sup>8</sup> Botirov M. "Derazanggni och", "Asragin, Xudo" T.: "Yangi asr avlodi" 119-bet.

<sup>9</sup> Botirov M. "Derazanggni och", "Shoir halqumi" T.: "Yangi asr avlodi" 135-bet

ham tayyor. Oshiq yoriga shu qadar mehribonki, uni shunchalar sevadiki, uni shunchalar qizg‘anadiki, go‘zalning umri shu ko‘zlarda o‘tsa:

Bir qush bo‘lsang,  
Bedor tunlarda,  
Kimsaki bilmasa, qayda ekaning.  
Va umring oxiri, ko‘zim sohili,  
Ishqda kafanlangan bo‘lsa maskaning.<sup>10</sup>

Bir tasavvur qiling-a yorning kafani ham hatto oshiqning ishqidan bo‘lsa. Bunday topilmalar juda kam uchraydi. Yana boshqa bir she‘rida lirik oshiq yomg‘irga aylanib yoring boshida hozir-u nozir. Uning bir o‘tinchi – soyabon ochilmasin! Axir u faqat o‘sha sohibjamol uchun to‘kilyapti, tuproqlarga singib ketish niyati yo‘q, hayotda faqat bitta narsani – suyuqlisi diydorini izlaydi va bu maqsad yo‘lida qat’iy qarorga kelgan:

Yomg‘ir bo‘lib yog‘ayapman, Xudo shohid,  
Izlay aytgin, diydoringdan o‘zga neni?  
Har qatram ishq, yolg‘izlatib qo‘ymas Xudo,  
Sening uchun yaratgan-ku, o‘zi meni!  
Yomg‘ir bo‘lib yog‘ayapman,  
Qo‘lingni och...<sup>11</sup>

Ha oshiq biladiki, Alloh uni bekorga emas aynan shu parivash uchun yaratgan. Shuning uchun Alloh yolg‘izlatib qo‘ymasligiga ishonchi komil. Sevgi faqat baxtli onlardan iborat emas. Talabgorlari mo‘l malaksiymo ba‘zan shaydosini ranjitishi ham mumkin. Shunday vaqtlarda oshiqning arazlab ketadigan joyi – ko‘ngil. U ko‘ngilga ketadi:

Ko‘ngilga ketaman, endi ko‘ngilga,  
Lekin sizga sira, xayr demayman.

<sup>10</sup> Botirov M. “Derazangni och”, “Bir qush bo‘lsang” T.: “Yangi asr avlodi” 125-bet

<sup>11</sup> Botirov M. “Derazangni och”, “Yomg‘irlarga aylangan, ko‘ngil” T.: “Yangi asr avlodi” 42-bet

Xayolchiqni, shundo-oq yopinib olib,  
Ming bora chaqiring, aslo kelmayman.

Bu arazchi oshiq anoyilardan emas. U bevafo dunyo va yorning jabrlaridan taqdirga tan bersa-da, ul bevafo ham dog‘da qoldirib ketmoqchi:

Men sizdan ketaman, ketishim aniq,  
Muhabbat va sizga, xayr-u xo‘sh aytib.  
Lekin umid qilmang, yuragingizni,  
Ikki dunyoda ham bermayman qaytib.<sup>12</sup>

Ana shunday u bevafo yuragini qaytib bermaydi. Uni ikki dunyoda ham bermaydi. O‘zi bilan olib ketadi. Oshiq yorini har on sog‘inib yashaydi va u mahvashdan ham shuni kutadi. Agar yor ham uni sog‘inmasa, uning dunyosi vayrona. Ijodkor bunday sog‘inchni shunday tasvirlaydi:

Dunyo yuragimday tor,  
Va yana rangsiz,  
Na yulduz oyi bor qaro tunlarning.  
Baxt haqida qanday bir misra yozay,  
Meni sog‘inmagan kunlaring!<sup>13</sup>

U intizor kutgan yorini qayda bo‘lmasin unutmaydi. Uni deb yashaydi. Undan bir mujda kutadi. Agar maktub yozsa, naqd “yurak manzili”ga yozishini so‘raydi:

Maktub yozsang, yuragimga yoz,  
Parcha-parcha bulutlardan bir oqlik so‘rab.  
O‘sma suvin siyoh et, gulbardan qog‘oz  
Yubor oyning oppoq nuriga o‘rab.<sup>14</sup>

Shu misralarni o‘qishdayoq, ijodkorning hayotga qanchalar oshiqligini-yu, o‘z mahubasini qanchalar inja hislar bilan sevishini anglab olish mumkin. Axir u

<sup>12</sup> Botirov M. “Derazangni och”, “Ko‘ngilga ketaman” T.: “Yangi asr avlodi” 112-bet

<sup>13</sup> Botirov M. “Hayot simfoniyasi”, “Meni sog‘inmagan kunlaring” T.: “Yangi asr avlodi” 43-bet

<sup>14</sup> Botirov M. “Hayot simfoniyasi”, “Maktub yozgin” T.: “Yangi asr avlodi” 54-bet

yordan maktubni o'sma suvi bilan gulbargga yozib oying oppoq, nurlari ila o'rab, yurak manziliga, tunda, birovga sezdirmay yuborishini istaydi. Oy faqat tunda nur taratishini hisobga olsak, u bu sirlardan boshqalar voqif bo'lishini xohlamaydi. Kechalari ishq dardi bilan yonganlargina bedor bo'ladi. Shunday vaqtda yuborilgan maktubdan oshiqlikdan yiroq bandalar g'ofil qoladi. Muxtasar qilib aytganda, Mirzohid Botirov ijodi hali o'rganilmagan, ochilmagan, qadam bosilmagan katta bog'. Uni o'rganish, tahlil etish, she'rlarini ommalashtirish o'zbek kitobxonlari uchun koni foyda bo'ladi. Ustoz tanqidchi – Ozod Sharafiddinov aytganlaridek tanqidchilarimiz ijodkor bog'iga kirar ekan qo'lida arra va bolta bilan emas, tokqaychi bilan kirmog'i kerak. Uning asarlariga bog'bon misol qaychisi bilan shakl bersin. Qozoqboy Yo'ldosh ta'biri bilan aytganda, ijodkor she'rlarini sinlab durdona namunalarni bizga ajratib bersin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Botirov M. "Hayrat chohlari" (She'rlar, g'azallar, dostonidan parchalar, manzumalar, uchliklar) "Step by step print" MChJ. 2020-yil 130 bet.
2. Botirov M. "Derazangni och" she'rlar. T.: Yangi asr avlodi, 2021-yil. 144 bet
3. Botirov M. "Hayot simfoniyasi" (she'rlar va g'azallar) T.: Yangi asr avlodi. 2021-yil. 208 bet